



ISSN 2021-9752

Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

«Til va adabiyot – Языка и литературы – Language and literature» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>

18
NOYABR

**O‘ZBEKISTON
DAVLAT BAYROG‘I
QABUL QILINGAN KUN**

O‘zbekiston bayrog‘i

*Qalbimiz to‘la surur,
To‘tiyo yurt tuprog‘i,
Hilpirab turar mag‘rur,
O‘zbekiston bayrog‘i.*

*Rangi hayot misoli,
Yulduzlari hiloli,
Mustaqillik timsoli,
O‘zbekiston bayrog‘i.*

*Iftixor dilimizda,
U yo‘ldosh yo‘limizda,
Yuksalar qo‘limizda,
O‘zbekiston bayrog‘i.*

*Gumbazlarda,
yuksakda,
Peshtoqlarda, falakda,
Ko‘ngillarda, yurakda,
O‘zbekiston bayrog‘i.*

*Rangi hayot misoli,
Yulduzlari hiloli,
Mustaqillik timsoli,
O‘zbekiston bayrog‘i.*

Iqbol Mirzo



Ilmiy-metodik elektron jurnal

TAHRIR HAY'ATI:

Nizomiddin Mahmudov, Yorqinjon Odilov, Jabbor Eshonqulov, Baxtiyor Daniyarov, Abdurahim Nosirov, To'liqin Saydaliyev, Barno Buranova, Zulxumor Mirzayeva, Qozoqboy Yo'ldoshev, Bahodir Jovliyev, Salima Jumayeva, Qayum Baymirov, Manzar Abdulxayrov, Alijon Safarov, Husniddin Norqulov, Odiljon Boynazarov, Madina Nuriddinova, Barno Kadirova, Nargiza Mirzayeva, Guli Shukurova, Yuldosh Raxmatov, Ramziddin Abdusatorov, Feruza Manukyan, Gulchexra Keldiyorova, Gulsanam Xolikulova, Svetlana Umirova, Xolmo'min Fayzullayev, Nilufar Namazova, Dilbar Niyazova, Sayyora Halimova, Shaxnoza Yunusova, Nigoraxon Ro'zibayeva, Tadjixon Sabitova, Oqila To'raqulova, Mohigul Fozilova, Maxpuzax Karaxodjayeva, Dilfuza Toshniyozova, Gulboxor Ernazarova, Komiljon Qarshiyev, Uyg'unjon Turdimurodov, Diyora Yunusova, Ra'no Abdullayeva, Sharif Yarashov, Shaxnoza Xudaykulova, Mahliyo Elboyeva Sanobar Ulliyeva, Surayyo Inomjonova, Nurali Hamidov, Mahfuza Davronova, Dilafuz Jabborova, Begali Mardiyev, Normuhammad Ubaydullayev, Feruza Sharopova, Adiba Ma'diyeva, Nilufarxon Mahmudova, Munisjon Hakimov, Sharifboy Bobojonov, Madixabonu Pardayeva.

Bosh muharrir:
Nargiza Berdiyeva

Muharrirlar:
Bibimariyam Rahmonova,
Shabnam G'aniyeva, Bonu Do'smatova

Sahifalovchi:
Rustambek Yusupov

Tahririyat manzili:
100038, Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi 30-uy.

Telefonlar:
(93) 759-43-66, (77) 003-34-33,
(94) 095-96-22, (90) 288-32-92.

E-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com

Axborot hamkorimiz:
TIL VA ADABIYOT TA'LIMI
ilmiy-metodik jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 338/6-sonli qarori bilan Filologiya, Pedagogika hamda Psixologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrdir.
<https://oak.uz/pages/4802>



MUNDARIJA

DOLZARB MAVZU

Manzar ABDULXAYROV.
“QUTADG‘U BILIG” ASARI: TADQIQ, TABDIL VA TALQIN MUAMMOLARI.....3

Husanboy RAHMONOV.
AQL, BILIM VA KONSEPSIYA: KOGNITIV LINGVISTIKADA MARKAZIY TUSHUNCHALAR TAHLILI7

Nargiza SULEYMANOVA.
Madina BAXRIDDINOVA.
MADANIYATLARARO MULOQOTDA ADABIY MATNLARNING O‘RNI VA TARJIMA QIYINCHILIKLARI..... 10

Hoshimjon AHMEDOV.
E‘TIQOD – USLUB ASOSI 14

TILSHUNOSLIK

Zarnigor SOBIROVA.
DIALEKTAL LEKSIKA TAHLILI UCHUN OG‘ZAKI KORPUS MATERIALLARINING TANLANISH TAMOYILLARI..... 19

Xasan GAFFOROV.
GENDER LINGVISTIKASIDA KONFLIKT DISKURSINI O‘RGANISH METODLARI..... 24

Dilnoza ZIYOYEVA.
TIBBIY DISKURSDA KOMPETENSIYA TUSHUNCHASINING LINGVOMADANIY VA KOMMUNIKATIV JIHATLARI..... 27



Manzar ABDULXAYROV,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU
O'zbek adabiyoti tarixi va matnshunoslik
kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori
manzarabdulxayrov64@gmail.com

“QUTADG‘U BILIG” ASARI: TADQIQ, TABDIL VA TALQIN MUAMMOLARI

Annotatsiya: maqola Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” asarining matniy tadqiqi, tabdili talqini muammolariga bag‘ishlangan. Unda “Qutadg‘u bilig” turkiy xalqlarning badiiy tafakkuri tadrijini tadqiq etishda qimmatli manba ekanligi bilan bir qatorda ushbu asarning mustaqillik yillarida o‘rganilishi tadqiqot tahlil doirasiga tortilishi kabi masalalar o‘rganilgan. Shuningdek, maqolada kelajakda “Qutadg‘u bilig” asarining yangi talqindagi nasriy-nazmiy bayonlarini yaratish va mukammal nashrlarini tayyorlash haqida ham so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *badiiy tafakkur, talqin, tabdil, manba, meros, turkiy xalqlar, tamaddun, adolat, el, elat.*

Аннотация: статья посвящена проблемам текстологического исследования и перевода произведения Юсуфа Хос Хаджиба “Кутадгу билиг”. Рассматривается вопрос о том, является ли “Кутадгу билиг” ценным источником для изучения развития художественного мышления тюркских народов, а также изучение данного произведения в годы независимости, включая такие вопросы, как включение данного произведения в сферу исследования и анализа. В статье также обсуждается создание в будущем новых прозаических и поэтических описаний произведения “Кутадгу билиг” и подготовка его совершенных изданий.

Ключевые слова: *художественное мышление, толкование, преобразование, источник, наследие, тюркские народы, цивилизация, справедливость, народ, этнос.*

Annotation: this article explores the textual study and translation of Yusuf Khos Hajib’s “Kutadgu Bilig”. It examines whether “Kutadgu Bilig” is a valuable source for studying the development of Turkic artistic thought, as well as the study of this work during the years of independence and its inclusion in the field of research and analysis. The article also discusses the future creation of new prose and poetic descriptions of “Kutadgu Bilig” and the preparation of its definitive editions.

Key words: *artistic thinking, interpretation, translation, source, heritage, Turkic peoples, civilization, justice.*

“Qutadg‘u bilig” barcha turkiy xalqlar, jumladan biz o‘zbeklarning ona tilimizda yaratilgan ilk shoh asar. Agar ona tilimizni barhayot mavjudot sifatida talqin qilsak, uning to‘la qonli hayot kechirishi uchun dastlabki sarchashmasi qanchalar zarurligi oydinlashadi. Milliy davlatchiligimizning qayta tiklanishi bilan kelajakka o‘zgacha ishonch bilan qaray boshladik. Bu ishonchimiz yanada mustahkam bo‘lishi uchun tarixga murojaat qilishimiz tabiiy. Tarixda buyuk davlatlar barpo etish hamma xalqlarga ham nasib etmagan. Bir paytlar misrliklar hayratomuz davlat shakllantirgan, keyinchalik xitoyliklar, yunonlar, forslar, rimliklar shunday sharafga muyassar bo‘lgan. Nihoyat, nisbatan yangi tarixda inglizlar yarim dunyoni egalladilar. Binobarin, jahongir xalqlarni ham bir necha toifaga bo‘lish mumkin. Ijodkor jahongir xalqlarning, yoxud bashariyat tamadduni tarixga salmoqli ulush qo‘shgan bunyodkor zobit uluslar safida turkiy xalqlar ham borligi bilan faxrlanamiz. Turkiy xalqlarning jahoniy hukmronligi bir necha marta, xususan qoraxoniylar va temuriylar, usmoniylar, qolaversa boburiylar davrida

ham davom etganini unutmaslik kerak[1:4]. Va bu jahongirlik bashariyat tarixiga qo‘shgan benazir hissasi bilan alohida ahamiyatga molik.

“Qutadg‘u bilig” qoraxoniylar davridan meros qolgan, o‘sha davrning tarixda va insoniyat tamadduni ravnaqida tutgan ahamiyatini hamisha yodimizga soladigan, faqat buyuk saltanatlar davrida yaratilishi mumkin bo‘lgan asar sifatida ham qimmatli. Homer yunonlarning zafarli yurishlarini boqiy dostonlarida kuylaganidek, Yusuf Xos Hojib o‘z asarida turkiy xalqlarga xos donishmandlik xislatlarini aks ettiradi. Biz turkiy xalqlarni boshqa jahongir xalqlardan farqlaydigan ijobiy jihatimiz faqat bunyodkorlik xislati bilan cheklanmaydi. Xitoylar va olmonlar singari mushohadago‘ylik qon-qonimizga singib ketgani ayni shohona asar mazmun-mohiyatida o‘z ifodasini topgan. Garchi dastlabki qarashda mushkul tuyulgani bilan dunyoni zabt etish oson. Insoniyat o‘z tarixi davomida jahongirlikning turli usullaridan samarali foydalanib kelayotir va bu jarayon zamonlar o‘tgani sayin yangicha shakllar kasb etishi ham shubhasiz.

Rizqu ro'z topish qanchalar qiyin bo'lmasin, jamiki tirik mavjudot ochlikdan qirilib ketar darajaga deyarli hech qachon tushmagan. Kun kechirishning ming xil usullari bor. Lekin chinakam insoniy hayot kechirish saodati hammaga ham nasib etavermaydi.

Qoraxoniylar saltanati dunyoning yarmini egallashi barobarida "inson qanday munosib hayot kechirishi kerak?", "bu borada qanday tamoyillarga amal qilishi lozim?", "Bashariy saodat negizi qanday qoidalarga borib taqaladi?", "Adolatli saltanat qoidasi bormi?" singari jahonshumul masalalar ustida ham bahs-munozaralar yuritganiga "Qutadg'u bilig" misolida ishonch hosil qilamiz[2:5].

Turkiy xalqlarning badiiy tafakkuri tadrijini o'rganishda qimmatli manba hisoblanuvchi bu asarni o'rganish natijasida shunday xulosalarga kelish mumkin. Turkiy xalqlar qadimda yarim dunyoni egallagan kezlarda ham mohiyatan jahongirlikka hech qachon mahliyo bo'lishmagan. Aksincha, hayot mohiyatini qidirish hamisha yetakchi fazilat hisoblangan. Aslida bu barcha imperiya-saltanatlar uchun xos xususiyatday tuyuladi. Rossiya imperiyasi eng kuchaygan palla o'n to'qqizinchi asrda ham Lev Tolstoyning paydo bo'lgani shundan dalolat beradi. Umuman, Yusuf Xos Hojib fenomenini Homer, Firdavsiy, Dante, Navoiy, Shekspir, Gyote, Tolstoy singari daholarga nisbatan o'rganish zarur.

"Qutadg'u bilig" yolg'iz turkiy xalqlarning emas, balki mazkur hududda azaldan yashab kelayotgan barcha elu elatlar, qolaversa qo'shni yirik va kichik uluslarning salohiyatini to'la-to'kis aks ettiruvchi asar sifatida ham qimmatli.

"Qutadg'u bilig"ni shunchaki didaktik asar emas. Qolaversa, "Shohnoma" singari jangnoma ham emas. Bu rosmana davlat nizomi vazifasini bajaradigan qomusiy asar. Davlatchilik qonun-qoidalarini belgilab beradi. Muallif debochada asar to'rt qadriyatga tayanishini ta'kidlaydi:

Bu doston bitishda qanot xush niyat,
Negizi tabarruk to'rtta qadriyat.

Birisi – adolat, to'g'rilik asos,
Ik(k)inchisi – davlat, qut, iqbol hassos.

Uchinchi – ulug'lik, tafakkur-aql,

Qanoat-ofiyat – to'rtinchi naql.

Bu asno nomladim ular har birin,

Bayon qilgum asta asroru sirin[2:27].

Jamiyat to'la qonli faoliyat yuritishi uchun Adolat, Davlat-qut, Ulug'ligu tafakkur, nihoyat Qanoat-ofiyat asos bo'lishi kerak, degan g'oyani Yusuf Xos Hojib ilgari suradi. Shoir adolatni birinchi galda tilga olgani bejiz emas. Binobarin, har qanday jamiyat, har qanday insoniy munosabatlar odilona qoidalar negiziga qurilishi

kerak. Adolatsiz, tafakkursiz davlat-qut yo'q, davlatdan esa faqat qanoat vositasida bahramand bo'lish mumkin. Binobarin, filologiya fanlari doktori Qosimjon Sodiqov ta'kidlaganidek, "Yusuf Xos Hojib davlatning kuch-qudratini, gullab-yashnashini, ezgulikni, kishining baxtu saodatini adolat, aql-zakovat hamda qanoat birligida deb biladi.

Muallif o'zining tenglik, adolat to'g'risidagi qarashlarini Kuntug'di tilidan beradi. Uning uqtirishicha, to'g'rilik (adolat) oldida hamma barobar. Kuntug'di elig tilidan buni shunday ta'riflaydi:

Ko'nilik uzala kesan-men ishig,

Adirmas-ma begsig ya qulsig' kishig.

(Ishni to'g'rilik, ya'ni adolat yuzasidan hal qilaman, Bek yo qulni farqlab o'tirmayman).

Adib siyosatni, davlat qonunlarini yuqori tutadi. Qonun va intizom ostida mamlakat obod, xalq eminerkin yashaydi, degan g'oyani qo'llab-quvvatlaydi. U o'tmish adib va mutafakkirlari orasida birinchilardan bo'lib davlat va jamiyat boshqaruvining demokratik asoslarini, tenglik prinsiplarini ishlab chiqdi, o'z davri davlat boshqaruvining yo'l-yo'riqlarini, to'ru tuzuklarini yaratdi. Binobarin, "Qutadg'u bilig" davlat nizomi darajasiga ko'tarilgan asar edi.

Yusuf Xos Hojib kishilik ma'naviyati tarixida birinchilardan bo'lib "komil inson" tushunchasini ko'tarib chiqdi. U "komil inson"ni *tugal er* deb atagan. Mutafakkir kishining ma'naviy yuksalishida ikki bosqichni ajratadi: birinchisi – balog'at; bunga ixlos qilsa, har bir bilimli, uqushli kimsa erishuvi mumkin. Kishi kamolotining ikkinchi bosqichi tugallikdir. Unga har kimsaning yetishuvi mushkul. Adibning ta'kidlashicha, *tugal er*da ikki sifat uyg'unlashmog'i kerak: biri – bilim; ikkinchi – uqush (zakovat). Ana shu sifatlari bilan kishi tugallikka erishadi:

Bu ikki biriksa, bo'lur er tugal,

Tugal er ajunug' tamam er tugal.

(Bu ikkisi biriksa, kishi tugal bo'ladi,

Tugal er olamni tugal qo'lga oladi), –

deb yozadi mutafakkir"[4:3].

Qanoat-ofiyat haqida so'z yuritganda shoir oltin o'rtalikka amal qiladi. Bu dunyo amallariga, hoyu-havasga berilib, u dunyoni unutmaslikni qayta-qayta uqtirishi barobarida jamiyatga naf keltirmaydigan zohidona turmush tarzini ham ma'qullamaydi. Shoir davlat va ijtimoiy toifalar o'rtasidagi munosabatlardan tortib, sevgi-muhabbat singari ko'ngil kechinmalari sir-asrorlarini ham bayon etadi.

Yusuf Xos Hojib o'z asarini yaratishda nisbatan "Don Kixot" muallifidek yo'l tutgandek taassurot paydo bo'ladi. Servantesning mashhur asari o'z davridagi qahramonlik asarlariga parodiya sifatida paydo

bo'lgan bo'lsa, Yusuf Xos Hojib ham zamondosh shoirlarning ijodidan, qolaversa donishmandlar, dongdor kishilarning pandu nasihatlaridan barakali foydalanadi.

Muallif o'z asarini o'n sakkiz oyda yozganini qayd etgan. Navoiy Hazratlari "Xamsa"ni ikki yilda yozib tugatish uchun necha yil tayyorgarlik ko'rgani, xususan davlat arobobi sifatida ham samarali faoliyat yuritganini inobatga olganda, muallif asarni yaratishdan oldin qanday ijtimoiy faoliyat bilan shug'ullanganini aniq tasavvur qilish mumkin. Hazrat singari "Qutadg'u bilig" muallifi ham asilzodalar toifasidan ekani shubhasiz. Uning ismiga nisbatan taxminiy qiyofasini ham gavdalantirish mumkin. Binobarin, Sharqda insonning ismi jismiga monand bo'lishi azaldan odat tusini olgan.

Dostonning o'ta samimiylik bilan yaratilganiga ham alohida e'tibor qaratishni istardim. Muallif suvrati va siyratining uyg'unligi asarning ayni xususiyatida yaqqol namoyon bo'lgan.

Qayum Karimov "Qutadg'u bilig"ning 1972-yildagi nashriga so'zboshida ta'kidlaydi:

"...yigitlikka achinish va qarilik, zamona bevafoqligi va do'stlar jafosi, Yusufning o'z uzrini aytishi va o'ziga pand berishi haqidagi boblar qasidadan iborat". Ayni qasidalarda shoirning siymosi yana ham yaqqolroq ko'zga tashlanadi.

Shuningdek, bu dostonni siyosatshunos olim Fazliddin Ravshanov tarjima-tabdil qilgan. "Akademnashr" nashriyotida 2015-yilda 1000 nusxada nashr qilingan. Fazliddin Ravshanovning tarjimasini mutlaqo talabga javob bermaydi, baytlar ham to'liq emas. Asar G'afur G'ulom nashrida 2015 va 2018-yilda ikki marta bosildi. Lotin alifbosida, "Adabiyot xrestomatiyasi" seriyasida. Bu nashrning kamchiligi – Qayum Karimov nashriga asoslanganida. Unda 6409 bayt bor, tahrir ham ko'ngildagidek emas.

Mumtoz adabiyot namunalarini tabdil va talqin qilish ham tobora keng quloq yoymoqda. Hazrat Navoiyning bir qator "Xamsa" tarkibiga kiruvchi dostonlari, qator nasriy asarlari, qolaversa "Boburnoma" kabi qomusiy asarlarning tabdil qilinishi madaniy-ma'naviy hayotimizdagi katta voqea bo'ldi.

Turkiy tilda yaratilgan ilk buyuk doston "Qutadg'u bilig"ham nihoyat she'riy tabdil qilinib, kitob holida keng o'quvchilar ommasiga hukmiga havola qilindi. Mazkur bebaho dostonni siyosatshunos olim Fazliddin Ravshanov zamonaviy tilga tabdil qilgan.

Avvalo F. Ravshanov bu ishga qo'l urib, juda katta mas'uliyatni qat'iyat bilan zimmasiga olganini ta'kidlash lozim. Mumtoz adabiyotimizga chuqur ehtiromi, keng hayotiy tajribasi, olim sifatida bilimdonligi mazkur tarixiy dostonni tabdil qilishda qo'l kelgan. "Qutadg'u bilig"ning

filologiya fanlari nomzodi Qayum Karimov tomonidan 1971-yildagi nashridan foydalanish barobarida 1984-yilgi uyg'urcha nashri transkripsiyasiga asoslanib, qolib ketgan ayrim baytlarni qisman to'ldirgani ham e'tiborga loyiq.

Mazkur tabdil bilan tanishar ekansiz, qator ravon baytlar e'tiboringizni tortadi:

*Buyukman deganni o'lim yiqdi, ko'r,
Ulug'man degandan o'lim chiqdi zo'r.*

F. Ravshanov tomonidan go'zal tabdil qilingan baytlar ham bor:

*Qaritdi ko'p bekni, o'zi qarimas,
Aritdi ko'p bekni, o'zi arimas.*

*Ayrim o'ziga xos qofiyalar ham diqqatga sazovor:
El ichra yana bir qatlam - savdogar,
To'xtamas savdodan, bo'lsa savdo gar[4:362].*

Lekin tabdil qilingan dostonning qator baytlariga aniqlik, ravonlik, shoirona zarofat va latofat yetishmaydi. Hattoki "O'kinchu ko'z yoshlar go'rda obodlik" singari g'aliz satrlar ham uchraydi[4:137].

Filologiya fanlari doktori, professor Nasimxon Rahmonov mazkur tabdilga yozgan so'ngso'zida to'g'ri ta'kidlagandek, "Qutadg'u bilig" tili bilan bugungi til orasida masofa uzoq. Shu bois tabdilga, xususan, "Qutadg'u bilig" tabdiliga ehtiyoj katta, tabdil ajdodlar va avlodlar orasidagi uzoq masofalarni qisqartiradi, bir-birlarini tushunishga yo'l ochadi".

"Qudatg'u bilig"ni nasriy bayon bilan nashrga tayyorlagan Qayum Karimov o'tgan asrning yetmishinchi yillari boshidayoq dostonidagi to'rtliklarni to'plab, asliyat matni bilan birgalikda she'riy tabdilini ham nashr qildirgan[5:51]. Bunga professor Boqijon To'xliyev amalga oshirib kelayotgan qator xayrli ishlarni ham qo'shimcha qilish zarur. Dostonning ayrim boblarini shoir Sa'dulla Ahmad ancha mahorat bilan tabdil qilgan. Emin Usmon ham "Qudatg'u bilig"ni tabdil qilishda bu ham o'ziga xos qadam bo'lgani shubhasiz. Qolaversa, shoir Abduhamid Pardayev she'riy tabdil qilgan "Qudatg'u bilig"dan Internet orqali ko'plab she'riyat muxlislari bir necha yillardan buyon foydalanib kelyapti.

Dostonning qisqacha "Bahor ta'rifida..." deb nomlanuvchi bobining dastlabki baytini ham Fazliddin Ravshanov muvaffaqiyatli tabdil qila olmagan:

*Sharq qo'zg'ab yubordi nasim – elini,
Olamga ochmoq-chun jannat yo'lini.*

Holbuki, ayni bobni Q. Karimov ham, shoir Sa'dulla Ahmad ham she'riy tabdil qilgan. Shoir Sa'dulla Ahmad she'riy tabdili nisbatan asliyatga yaqin desa bo'ladi:

*Qutlug' nasim esdi tong-la tug'ardin,
Ya'ni er behishti – erta bahordin.*

"Qudatg'u bilig" masnaviy doston bo'lib, aruz

vaznida yozilgan. Lekin dostonda ikki yuzga yaqin ruboiy, ya'ni to'rtlik keltirilgan. Q. Karimov bu xususda shunday deb yozadi:

"Qudatg'u bilig"da keltirilgan to'rtliklardan tashqari qolgan qismi(71, 72, 73-fasllar bundan mustasno) epik asarlar uchun eng qulay janr – masnaviy (qofiyalangan ikkilik) tarzida yozilgan. So'nggi uch fasl (yigitlikka achinish va qarilik, zamona bevafoqligi va do'stlar jafosi, Yusufning o'z uzrini aytishi va o'ziga pand berishi haqidagi boblar) esa qasidadan iborat"[7:17].

"Qudatg'u bilig"ning Q.Karimov tayyorlagan ikkinchi nashrini 322-betida muhabbat haqida radifli chiroyli to'rtlik bor. G'afur G'ulom nomidagi "Badiiy adabiyot" nashriyotida 1971-yil chop etilgan hamda mazkur dostondagi 170 ta to'rtliklarni, bahor tavsifi va ularning badiiy tarjimasini o'z ichiga olgan to'plamni varaqlar ekanmiz, mazkur to'rtlikni Q. Karimov asliyatga hamohang radif bilan tabdil qilganiga guvoh bo'lamiz:

*Sevuvchi kishining yuzi belgili,
Gap ochganda ma'ni, so'zi belgili.
Sevar, sevmasini bilayin desang,
Senga o'tru boqsa, ko'zi belgili*[5:51].

Abduhamid Pardayev tabdili yana ham shoirona jaranglaydi:

Shavqi ishq sevimli yuzidan ayon,
Mastona kalomu so'zidan ayon.
Sevish-sevmasligin bilayin desang,
Nozlanib boqishi, ko'zidan ayon.

F.Ravshanov mazkur to'rtlikning dastlabki ikki baytini radif bilan tabdil qilgan, biroq to'rtlikni masnaviyga aylantirgan:

*Sevgan yuz-ko'zidan belgi beradi,
Gap ochsa, so'zidan belgi beradi.
Sevish yo sevmasin bilay desang gar
Nazar sol, boqqanda ko'zlari gavhar*[4:167].

Xulosa qilib aytganda, Yusuf Xos Hojib asarlarining o'rganilishi va hozirgi o'zbek yozuvidagi nashrlarining ko'payayotgani xalqimizni adib ijodiyoti bilan tanishtirish, ulug' shoir g'oya va intilishlarini targ'ib etish nuqtayi nazaridan tahsinga sazovordir. Ammo Yusuf Xos Hojib asarlarining tabdili va talqini saviyasi haqida ancha yillardan beri davom etib kelayotgan bahs-munozaralar kelajakda shoir asarlarining qo'lyozmalari asosida qayta tabdil va talqin qilinishi va unda ilgari yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko'rishni matnshunoslik oldiga bosh vazifa qilib qo'yadi. Bu yo'nalishda tadqiqotlarni davom ettirish dolzarb masaladir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov Q. Ilk badiiy doston. – T.: "Fan" nashriyoti, 1976.224-bet.
2. Yusuf Xos Hojib. "Qudatg'u bilig". – T.: "Yangi asr avlodi" nashriyoti, 2020.560-bet.
3. "O'zAS", 2010-yil. 10-dekabr. 50-son.
4. Yusuf Xos Hojib. "Qudatg'u bilig". – T.: "Akademnashr", 2015.
5. Yusuf Xos Hojib. "Qudatg'u bilig", – T.: "Yulduzcha" nashriyoti, 1990.177-bet.
6. Yusuf Xos Hojib, "Qudatg'u bilig". G'. G'ulom nomidagi Badiiy adabiyot nashriyoti. – T., 1971 – B.51.
7. Yusuf Xos Hojib. "Qudatg'u bilig". O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti. – T., 1972. – B. 17.

